

Bizning ko'cha

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar



lug'at



-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi:

Masalan: *Shahrimizning ko'chalari keng va chiroyli.*

Otlarga qo'shiladigan -ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan qo'shimchalari kelishik qo'shimchalaridir.

O'zbek tilida oltita kelishik bor.


Kelishiklar	So'roqlari	Qo'shimchalari
Bosh kelishik	kim?, nima?, qayer?	—
Qaratqich kelishigi	kimning?, nimaning?, qayerning?	-ning
Tushum kelishigi	kimni?, nimani?, qayerni?	-ni
Jo'nalish kelishigi	kimga?, nimaga?, qayerga?	-ga (-ka, -qa)
O'rin-payt kelishigi	kimda?, nimada?, qayerda?, qachon?	-da
Chiqish kelishigi	kimdan?, nimadan?, qayerdan?	-dan



1-topshiriq. Matnni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Gaplarga mos savollar tuzing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni toping.

Biz Amir Temur ko'chasida yashaymiz. Bizning ko'chamiz katta va keng. Yo'l bo'yida har xil gullar va daraxtlar o'sadi.

Har yili bahorda mahallamizda hashar o'tkaziladi. Unda biz ham qatnashamiz. Ko'chamizni obodonlashtirish ishlarida kattalarga yordam beramiz. Chiroyli gullar va mevali daraxt ko'chatlarini ekamiz.



**1-mashq. Gaplarga mos savollar tuzib yozing.**

1. Bizning ko'chamiz ozoda va keng.
2. Bayramda shahrimiz ko'chalari chiroyli bezatiladi.
3. Yo'l chetlariga chiroyli gullar ekilgan.
4. Katta ko'chalarda avtomobillar qatnovi ham ko'p bo'ladi.
5. Biz ko'chamizni obodonlashtirishga yordam beramiz.

**2-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.**

Bu ... ko'chamiz. Biz ... ko'chasida yashaymiz. Ko'chamiz ... va Ko'cha oxirida ... bog'chasi, ko'p qavatli ... bor. Mahallamizda ... o'tkazib turiladi. Unda yo'l chetlariga ... ko'chatlari ekiladi, ariqlar tozalanadi. Menga ... juda yoqadi.

Foydalanish uchun so'zlar: gul, Amir Temur, bizning, keng, chiroyli, bolalar, ko'chamiz, uylar, hasharlar, ozoda.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi ko'chada yashaysiz?
2. Maktabingiz qaysi ko'chada joylashgan?
3. Siz yashayotgan joydagi istirohat bog'lari qanday nomlangan?
4. Qaysi ko'chadagi bog' sizga yoqadi?



3-topshiriq. Rasmlar asosida krossvordni yeching.



Ko'changiz haqida so'zlab bering. Uyingizdan maktabgacha bo'lgan yo'l xaritasini chizing.

